

**2017-2024 YILLARDA SAMARQAND VILOYATIDA OLIV  
TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR**

**MIRZAYEVA Baxti Xamzayevna,**

*Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Tarix yo'nalishi 2 kurs magistranti*

*Email: baxtimirzayeva1987@mail.ru*

*Tel:+998994055026*

**Annotation:** Ushbu maqolada 2017–2024 yillarda Samarqand viloyatida oliy ta'lif tizimining rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Mazkur davr mobaynida oliy ta'lif muassasalarining soni ortgani, yangi universitet va filiallar tashkil etilgani, ta'lif sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilgani yoritiladi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikning kengayishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi va ilmiy tadqiqot faoliyatining rivojlanishi kabi jihatlarga e'tibor qaratiladi

**Kalit so'zlar:** Samarqand viloyati, oliy ta'lif, ta'lif tizimi, islohotlar, moddiy-texnik baza, zamonaviy texnologiyalar, institut, filial.

**РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В  
САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В 2017-2024 ГОДАХ**

В данной статье анализируются процессы развития системы высшего образования в Самаркандской области в период с 2017 по 2024 годы. Рассматривается увеличение количества высших учебных заведений, создание новых университетов и филиалов, а также проведение реформ, направленных на повышение качества образования. Кроме того, уделяется внимание расширению международного сотрудничества, внедрению современных педагогических технологий и развитию научно-исследовательской деятельности.

**Ключевые слова:** Самаркандская область, высшее образование, система образования, реформы, материально-техническая база, современные технологии, институт, филиал.

## **REFORMS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF SAMARKAND REGION (2017-2024)**

*This article analyzes the development processes of the higher education system in the Samarkand region from 2017 to 2024. It highlights the increase in the number of higher education institutions, the establishment of new universities and branches, and the implementation of reforms aimed at improving the quality of education. Additionally, attention is given to the expansion of international cooperation, the introduction of modern pedagogical technologies, and the advancement of scientific research activities.*

**Keywords:** Samarkand region, higher education, education system, reforms, material and technical base, modern technologies, institute, branch.

**Kirish.** 2017-2024 yillar davomida Samarqand viloyatida oliy ta'lif tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Yangi oliy ta'lif muassasalari ochildi, mavjud universitet va institutlar modernizatsiya qilindi, ta'lif sifatini oshirish maqsadida xorijiy universitetlar bilan hamkorlik kuchaytirildi. Jumladan, 2017 yildan boshlab Samarqand davlat universiteti va boshqa oliy o'quv yurtlarida yangi ta'lif yo'nalishlari ochildi, zamonaviy laboratoriylar va ilmiy markazlar tashkil etildi. Talabalar va o'qituvchilar uchun xalqaro almashinuv dasturlari yo'lg'a qo'yildi. Bundan tashqari, professor-o'qituvchilar tarkibining malakasi oshirildi, ta'lif jarayoniga innovatsion texnologiyalar joriy qilindi. Barcha bu islohotlar natijasida Samarqand viloyatida oliy ta'lif tizimi sezilarli darajada rivojlandi va xalqaro standartlarga moslashtirildi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni va Kadrlar

tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta'lismuassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1533-sonli, 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentabrdagi “Oliy ta'lismuassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-sonli, 2012 yil 29 dekabrdagi “Respublika oliy ta'lismuassasalari reytingini baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 371-sonli, 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta'lismuassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha oliy ta'litmizida bir qator ishlar amalga oshirilgan.

**Asosiy qism.** 2017-2018 o‘quv yilida O'zbekiston Respublikasida 75 ta oliy ta'lismuassasalari (59 ta oliy ta'lismuassasasi va ularning 16 ta filiali) faoliyat olib borgan. Ushbu davrda rivojlangan xorijiy davlatlar nufuzli oliy ta'lismuassasalarining 7 ta filiallari, ya’ni G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Toshkent shahridagi Xalkaro Vestminster universiteti (Angliya), Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituta, I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, Turin politexnika universiteti (Italiya), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Toshkent shahridagi INXA universiteti (Janubiy Koreya) ham ta'limga bergan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy Ta'litmizini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarorida belgilangan vazifalarning samarali yechimini to‘liq ta'minlash maqsadida oliy ta'litmizdarasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lismuassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o‘quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya

texnologiyalari bilan jihozlash maqsadida Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Dasturga muvofiq 2017-2021 yillarda 48 ta oliy ta'lim muassasasida jami 180 ta o'quv, ilmiy-laboratoriya binosi, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalari obyektlarida qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari olib boriladi. Shuningdek, 53 ta oliy ta'lim muassasasida 400 ta o'quv laboratoriyasi bosqichma-bosqich eng zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalar bilan jihozlanadi, 7 ta oliy ta'lim muassasasida barcha oliy ta'lim muassasalari o'zaro hamkorlikda foydalanadigan ilmiy laboratoriyalar tashkil etilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, hozirgi vaqtida yoshlar eng nufuzli oliygochlarga kirish uchun intiladi, lekin oliy o'quv yurtlari o'rtasida bilimli va iqtidorli yoshlarni jalb qilish bo'yicha raqobat yo'q. Shu sababli, xususiy oliygochlarga ham kerakli mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha davlat buyurtmasi berish tizimi yo'lga qo'yiladi. Yurtimizdag'i 30 ta yetakchi oliygohga o'quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi berildi [1].

Samarqand viloyatida oliy ta'lim uzlucksiz ta'lim tizimining mustaqil turi bo'lib, respublika qonunchiligiga muvofiq umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim negizida oliy ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichga — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, Malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Dastur yakunida davlat komissiyasi tomonidan bitiruvchilarga o'qish yo'nalishi bo'yicha "bakalavr" malakasi beriladi va tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi. Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir. O'qishni tugatgandan so'ng bitiruvchilar ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha diplom va magistr darajasiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy Ta'limgizini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarorida belgilangan vazifalarning samarali yechimini to'liq ta'minlash maqsadida oliy ta'limgizdarasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'limgiz muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash maqsadida Oliy ta'limgizini 2017-2021 yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Dasturga muvofiq 2017-2021 yillarda 48 ta oliy ta'limgiz muassasasida jami 180 ta o'quv, ilmiy-laboratoriya binosi, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalari obyektlarida qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari olib boriladi. Shuningdek, 53 ta oliy ta'limgiz muassasasida 400 ta o'quv laboratoriyasi bosqichma-bosqich eng zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalarini bilan jihozlanadi, 7 ta oliy ta'limgiz muassasasida barcha oliy ta'limgiz muassasalari o'zaro hamkorlikda foydalanadigan ilmiy laboratoriylar tashkil etilishi belgilab qo'yildi.

2017-2018 o'quv yilida Samarqand viloyatida quyidagi OTMlar bor edi: SamDAQI - Samarkand davlat arxitektura qurilish instituti, SamDTI - Samarkand davlat tibbiyot instituti, SamDU - Samarqand davlat universiteti, SamDCHTI - Samarkand davlat chet tillar instituti, SamISI - Samarkand iqtisodiyot va servis instituti, SamQXI - Samarqand qishloq xo'jalik instituti. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali [2]. Kadrlarga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda keyingi yillarda respublikada va Samarqand viloyatida oliy ta'limgiz muassasalari soni ortib borishi kuzatildi. Jumladan, Chirchiq shahrida Xalq ta'limi vazirligi tasarrufida Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Termiz shahrida Toshkent davlat texnika universiteta hamda Toshkent davlat agrar universiteti filiallari, Qo'qon shahrida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali tashkil etildi [2]. Shu qatorida Samarqand viloyatida ham bir qator yangi davlat va nodavlar universitetlar ochildi. Jumladan, Samarqand davlart universitetining Kattaqo'rg'on filiali va h.k.

Samarqand viloyatida 2021/2022 o'quv yilida institutlar – 13 ta, universitetlar – 1 ta, akademiyalar – 0 ta bo'lgan [3]. Oliy ta'lim tashkilotlari (oliy harbiy ta'lim tashkilotlaridan tashqari) sonining tahlili ularning 2021/2022 o'quv yilida (14 ta) 2020/2021- o'quv yiliga nisbatan (12 ta) 2 taga o'sganini ko'rsatmoqda. 2022/2023-o'quv yili boshida viloyat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni 84739 nafarni tashkil etgan. Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni esa yillar kesimida quyidagicha bo'lgan: 2020/2021-o'quv yili boshiga 54 827 nafar; 2021/2022-o'quv yili boshiga 70 772 nafar; 2022/2023-o'quv yili boshiga 84 739 nafar [4].

Viloyatdagi yetakchi va davlatimizdagi dastlabki universitetlardan biri Samaqrand davlat universiteti hisoblanadi. Mirzo Ulug'bek madrasasining vorisi sifatida faoliyat olib borayotgan Samarqand davlat universitetidan ham turli davrlarda P.Soliyev (1927 yilda Samarqanddagi Oliy pedagogika institutida ish boshlagan), Hamid Olimjon (1928-1931), Ibrohim Mo'minov (1928-1931), Mirtemir (1929-1932), Amin Umariy (1931-1934), Sharof Rashidov (1937-1941), A.Otaxo'jayev (1944-1948), Dushan Fayziy (1947-1952), B.Valixo'jayev (1948-1953), B.Boyqobilov (1958-1962), Omon Matjon (1965-1969) kabi siyosatchi, shoir va fan arboblari yetishib chiqqan [5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoniga ko'ra oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish hamda O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish belgilab olindi [6]. Mazkur konsepsiya ijrosini ta'minlash hamda Samarqand davlat universitetini ilmiy-texnologik va ijtimoiy rivojlantirish, raqobatbardosh ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash, flagman oliy ta'lim muassasasi darajasiga olib chiqish maqsadida 2022 yil 13

yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlash to'g'risida" PQ-82-son Qarori qabul qilindi [7]. Ushbu qarorga ko'ra Samarqand davlat universitetiga atoqli davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidov nomi berilib, 2022-2025-yillarda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi.

Shuningdek, qarorga muvofiq universitet tarkibida:

agronomiya, biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi sohalarida kadrlar tayyorlovchi Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti; muhandislik, avtomatika, mexatronika, robototexnika, raqamli elektronika, elektrotexnika, mashinasozlik, materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi sohalarida kadrlar tayyorlovchi Muhandislik fizikasi instituti; pedagogika, axborot texnologiyalari va hududda kadrlarga ehtiyoj yuqori bo'lgan boshqa sohalarda kadrlar tayyorlovchi universitetning Urgut filiali tashkil etilishi belgilandi.

Universitet tarkibidagi har uchala OTMdA ta'lim faoliyati 2022/2023 o'quv yilidan boshlanib, ularda o'quv jarayoni kredit-modul tizimi asosida olib borilmoqda. Qarorda binoan universitetning agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti bakalavriat ta'lim yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklarida ta'lim olayotgan talabalar o'qishini Agrobiotexnologiyalar institutida davom ettiradi. Fizika va matematika fakultetlari tarkibidagi amaliy bakalavriat ta'lim yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklarida ta'lim olayotgan talabalar o'qishini Muhandislik institutida davom ettiradi.

Agrobiotexnologiyalar instituti Samarqand tumani, Gulobod qo'rg'onidagi Universitet huzuridagi Gulobod agrotexnologiyalar texnikumining bir qismiga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilishi, Muhandislik instituti Samarqand shahri, Xishrav qo'rg'onidagi Universitet huzuridagi Yadro fizikasi laboratoriysi hududining bir qismiga tekin foydalanish huquqi asosida vaqtincha joylashtirilishi hamda Urgut filialiga esa Urgut tumani, Vagashti mahallasida joylashgan Urgut

iqtisodiyot va servis kasb-hunar kolleji bino va inshootlari tegishli hududi bilan birgalikda operativ boshqaruv huquqi asosida bepul berilishi belgilab olindi.

Universitet tomonidan Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy va Jizzax viloyatlaridagi oliy ta'lif muassasalariga ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlashni yo'lga qo'yish belgilangan. O'sha davrda Samarqand davlat universitetida 12 ta fakultet va ular tarkibida 49 ta kafedra mavjud bo'lgan.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra viloyatda 2024 yil birinchi yarmida 16 ta oliy ta'lif muassasasi faoliyat ko'rsatgan. Ulardan **14 tasi davlat va 2 tasi nodavlat** OTM hisoblanadi [8]. Jumladan, 9 ta universitet va universitet filiallari. 1.“Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti 2.Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti 3.Samarqand davlat tibbiyot universiteti 4.Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali 5.Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 6.Samarqand davlat universiteti 7.Samarqand davlat universitetining Urgut filiali 8.Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Samarqand filiali 9.Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali. Bu davrda viloyatda universitetlar soni oldingi yillarga nisbatan ortib, ba'zi institatlarga universitet maqomi berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Viloyatda quyidagi 5 ta institut mavjud: 1.Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 2.Samarqand davlat chet tillar instituti 3.Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti 4. O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti 5. Oliy sport mahorati instituti. Mazkur davrda viloyatda 2 ta nodavlat universitet mavjud bo'lgan: 1. Samarqand xalqaro texnologiya universiteti 2. Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali.

2024 yil ikkinchi yarmi ma'lumotlariga ko'ra viloyatda shuningdek quyidagi nodavlat universitetlar ham faoliyat ko'rsatmoqda: 1.Buxorodagi Zarmed universiteti Samarqand filiali. 2.Toshkentdagi Oriental universiteti Samarqand filiali 3. ISFT Samarqand filiali. 4. Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand filiali [9]. Demak, hozirgi kunda viloyatda jami 6 ta nodavlat

universitet faoliyat ko'rsatib kelmoqda.


Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali–O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.05.2021 yildagi 307-sonli qarori asosida tashkil topgan. Filialda 2 ta fakultet, 5 ta kafedra, 16 ta bakalavriat ta'lim yo'naliishlari mavjud bo'lib, 2 039 nafar (bakalavriat kunduzgi 1 778 nafar, sirtqi 261 nafar) talaba tahsil olmoqda (ilmiy salohiyat – 25,9 foiz) Bakalavriat ta'lim yo'naliishlari o'quv rejalarini ishlab chiqilgan, 6 ta buyurtmachi tashkilotlar ("Samarqand viloyati maktabgacha va mакtab ta'limi boshqarmasi", "Samarqand viloyati moliya boshqarmasi", "Tadbirkorlikni rivojlantirish angentligining Samarqand viloyati bo'yicha vakolatli ofisi", "Markaziy bank Samarqand viloyati boshqarmasi", "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi", "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi Samarqand mintaqaviy filiali") bilan kelishilgan. SamDU Kattaqo'rg'on filialida 2 ta o'quv binosi, 1 ta sport zal, 1 ta ARM mavjud, binolar xizmat ko'rsatish quvvati 2 000 o'rin, 2 ta fakultet, 5 ta kafedralarda bakalavriat kunduzgi shaklida 16 ta ta'lim yo'naliishida 1 778 nafar, sirtqida 2 ta ta'lim yo'naliishida 261 nafar (jami 2 039 nafar) talabalar tahsil olmoqda [10].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoniga ko'ra oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish maqsadi belgilangach respublikamizda nodavlat OTMlar soni oshib borishi kuzatildi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda Respublikada 100 ga yaqin nodavlat oliy ta'lim muassasalari qonuniy faoliyat yuritmoqda [9].

Viloyatdagi OTMlarda turli millat va tillardagi talabalar tahsil oladi. Jumladan, 2021/2022- o'quv yilida viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining ta'lim olayotgan tillari bo'yicha taqsimoti quyidagicha bo'lgan: o'zbek tili – 84,3 %, rus tili – 13,4 %, tojik tili – 1 %, boshqalar – 1,3 %. Mazkur

raqamlar ba'zi tillar bo'yicha oldingi yillarga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin. Jumladan, rus tili 2020/2021 o'quv yilida 14,3 % bo'lib, 2021/2022 yilda esa kamayib 13,4 %, boshqa tillar 2020/2021 o'quv yilida 2,2 % bo'lib, 2021/2022 yilda esa kamayib 1,3%ni tashkil etgan [3].

2021/2022- o'quv yilida viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining yoshi bo'yicha taqsimoti esa quyidagicha bo'lgan:



Mazkur yilda talabalar yoshi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 19, 20 va 21 yoshlilar, eng kam ko'rsatkich esa 40-undan katta, 30-34 yosh hamda 17 va undan kichik yoshlilar tashkil etgan. Bu maktabni bitirgan bitiruvchilarning OTMga kirish ko'rsatkichi past bo'lganligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** 2017–2024 yillarda Samarqand viloyatida oliy ta'lim tizimi sezilarli darajada rivojlandi. Bu davrda oliy ta'lim muassasalari soni ko'paydi, yangi filiallar va xususiy universitetlar tashkil etildi. Ta'lim sifatini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etildi, xalqaro hamkorlik kengaydi va talabalarning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, davlat tomonidan oliy ta'limni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rildi, jumladan, moliyaviy investitsiyalar hajmi oshdi, infratuzilma yaxshilandi va professor-o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari kengaytirildi. Samarqand viloyatining oliy ta'lim muassasalari xalqaro reytinglarda o'z o'rnini mustahkamlab, ilmiy tadqiqot faoliyatini kuchaytirdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. <https://president.uz/oz/lists/view/4050>
2. Олий таълим муассасалари фаолиятининг асосий кўрсаткичлари.  
Статистик тўплам. (2017-2018 ўқув йили). – Тошкент, 2018. – Б. 2.
3. O'zbekiston Respublikasi davlaat statistika qo'mitasi. Samarqand viloyatida oliy ta'lim faoliyatining asosiy statistic ko'rsatkichlari (2021/2022 o'quv yili uchun). – Samarqand, 2022. – B. 2
4. Samarqand viloyatida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni
5. Samarqand davlat universitetining 600 yilligi deputatlar nigohida - zarnews.uz
6. PF-5847-сон 08.10.2019. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida
7. PQ-82-сон 13.01.2022. Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida
8. Samarqand viloyatida joylashgan OTMlar ro'yxati
9. Qaysi nodavlat oliygochlarning filiallari mavjud? To'liq ro'yxat
10. Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali - Vikipediya